

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISHNING KONSEPTUAL AOSOSLARI

Mamadaliyev Abdikamal,

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va mактаб та'limi vazirligi O'quvchilarни kasbga
yo'naltirish bo'lumi boshlig'i*

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan amaliy muammoli topshiriqlar mazmuni va ularni bajarish metodi, shakli va vositalari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lismuassasalari o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning konseptual aososlari hamda kasb-hunar ta'limi ishini yo'naltirishi kerak bo'lgan asosiy tamoyillari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Kasbga yo'naltirishning konseptual aososlar, qobiliyat, rivojlanish, professional ta'lism, davlat nazorati, ta'lim ehtiyojlari, inklyuziv ta'lim.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ СТУДЕНТОВ СРЕДНИХ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Mамадалиев Абдикамал,

начальник управления профориентации Министерства дошкольного и школьного образования Республики Узбекистан

Аннотация. В статье рассматривается содержание практических проблемных заданий, направленных на формирование профессиональных умений студентов, а также метод, форма и средства их выполнения. Также выделены концептуальные основы профессиональной ориентации учащихся средних общеобразовательных учреждений и основные принципы, которыми следует руководствоваться в работе профессионального образования.

Ключевые слова. Концептуальные основы профессиональной ориентации, способности, развитие, профессиональное образование, государственный контроль, образовательные потребности, инклюзивное образование.

CONCEPTUAL BASIS OF PROFESSIONAL DIRECTION OF STUDENTS OF GENERAL SECONDARY EDUCATION INSTITUTIONS

Mamadaliyev Abdikamal,

Head of the Department of Vocational Guidance of the Ministry of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The article discusses the content of practical problem assignments aimed at forming students' professional skills and the method, form and means of their implementation. Also, the conceptual foundations of vocational orientation of students of general secondary educational institutions and the main principles that should guide the work of vocational education are highlighted.

Key words. Conceptual foundations of vocational guidance, ability, development, professional education, state control, educational needs, inclusive education.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarga mutanosib ravishda o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash va ularni kasb hunarga yo'naltirish tizimini takomillashtirish zarur. Bunda, birinchidan, o'quvchilarni qiziqishlarini aniqlashda xorijiy mamlakatlar tajribasini jumladan, Germaniya tajribasini chuqur o'rjanib, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda 7-sinfdan boshlab o'quvchilarni qiziqish va qobiliyatlariga qarab kasbga yo'naltirish mexanizmlari takomillashtiriladi. O'quvchilarni qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash bo'yicha mavjud tizimni yangi zamonaviy metodlar yordamida takomillashtirilib, uni barcha o'quvchilar foydalanishi uchun qulay shaklga keltiriladi.

O'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, ularga zamonaviy kasblar to'g'risida ma'lumotlar berish, ularni kasb-hunarga yo'naltirish va zamonaviy kasblar bo'yicha onlay ta'lim kurslarini o'zi ichiga olgan onlays platforma yaratiladi.

So'nggi yillarda ta'limga, o'qituvchilarga e'tibor oshdi, oliy ta'limda qabul soni va yo'nalishlar ko'paydi. Lekin, maktablardagi sifat hali talab darajasiga chiqqani yo'q. Masalan, 11 yil maktabda

o'qigan bola chet tilini mukammal bilmaydi. Sharoit va mutaxassislar yo'qligi sababli yoshlarni kasblarga qiziqtirish muhiti shakllanmagan. Maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelmoqda.

2023-yilning 20-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bugungi kunda eng muhim va dolzarb masalalardan biri ekanligi ta'kidlandi. Shuningdek, o'quvchilarni axborot texnologiyalari va "kreativ industriya" bo'yicha zamonaviy kasblarga o'rgatish muhimligi ko'rsatib o'tildi[1].

2023-yil 30-aprelda qabul qilingan Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 50-moddasida "Har kim ta'lim olish huquqiga ega.

Davlat uzlusiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi.

Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o'rta ta'lim majburiydir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta ta'lim davlat nazoratidadir.

Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lган bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi." deb belgilab qo'yilgan[2].

Har bir yosh ta'lim olish huquqi kafolatlangani kabi mazkur konstitutsiyaning 42-moddasiga ko'ra har bir har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash huquqiga egadir.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek, ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek, ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- boshlang'ich professional ta'lim;
- o'rta professional ta'lim;
- o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida 9-sinf bitiruvchilar negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnomaga asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lган kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnomaga asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lган kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Kasb-hunar maktablari, kollejljar va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlashi belgilab berilgan[3].

Har bir yosh hayoti davomida kasb tanlashda muhim qarorlar qabul qilishga to'g'ri keladi, qaror qabul qilish oson ish emas. Insonning farovonligi, hayotini o'zgarishi uning to'g'ri kasb tanloviiga bog'liq. Har bir yosh o'ziga "Kim bo'lsam ekan?" degan savolni berishi hamda uning optimal yechimini topishi nafaqat uning shaxsi, balki butun jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega.

Kasb-hunarga yo'naltirish yosh avlodni kelajakda o'z o'rini topishi o'zi sevgan kasb bilan shug'illanishiga yordam beradi. Kasbga yo'naltirish o'quvchilar bilan olib boriladigan barcha pedagogik ishlarning tabiiy davomi va qaysidir ma'noda mantiqiy xulosasidir. O'quvchiga kasb tanlashda yordam berish kelajakda tanlagan kasbi bo'yicha fanlarni mukammal o'zlashtirishiga yordam beradi.

Maktab bitiruvchilariga kasb tanlashlariga ko'maklashish natijasida yoshlar mustaqil hayotga tayyorlanadi. Barcha tadqiqotchilar kasbga yo'naltirish ishlarini o'quvchilarning yoshiga, aqliy rivojlanishiga qarab olib borilishi to'g'risida fikr yuritadi. Maktab o'quvchilari va maktab bitiruvchilarini

kasbga yo‘naltirishda alohida ishlar tashkil etiladi. Maktab bitiruvchilar bilan bu borada bevosita tizimli ishlarni tashkil etish maqsadga muvoqdir.

Maktabda kasbga yo‘naltirishni o‘quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqish to‘g‘ridir. Uni ba’zan boshqa ish sohalaridan, ayniqsa mehnat va mehnat faoliyatidan ajratib bo‘lmaydi.

Shu maqsadda kasbga yo‘naltirish ikkita vazifani bajaradi:

birinchisi, o‘quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini rivojlantiradi;
ikkinchisi, kasb tanlash va egallash asoslarini ochib beradi.

Umumta’lim fanlarini o‘rganishda o‘quv materiali mazmuniga va kognitiv faoliyat turlariga qiziqish paydo bo‘ladi va barqarorlashadi. Yoshi bilan ma’lum fanlar va ta’lim turlariga qiziqish farqlanadi hamda o‘ziga xos, kasbiy yo‘nalishga ega bo‘ladi. O‘quv jarayoni, shubhasiz, maktab o‘quvchilarini har tomonlama rivojlantirish va hayotda o‘z taqdirini o‘zi belgilashga tayyorlashning eng muhim omilidir.

Maktabda kasbga yo‘naltirish ishining asosiy maqsadi o‘smirga kasbiy ta’lim imkoniyatlarini tanlashda haqiqiy yordam berishdir.

Oqilona kasbiy tanlov –istiqbolni rejalashtirishda mas’uliyatni biladigan shaxsning shaxsiy qaroridir. Hamma kattalar ham bunday mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyor emas, shuning uchun kasb tanlashda o‘smir ayniqsa mutaxassislarning yordamiga muhok: o‘qituvchilar, ota-onalar, psixologlar.

Kasb-hunarga yo‘naltirishning eng yuqori darajasi o‘quvchilarning mustaqil kasbiy o‘zini -o‘zi anglashi, kasbiy faoliyatini rejalashtirishdir. Bu darajada inson o‘zi haqida mustaqil va ongli ravishda qaror qabul qilishga tayyor.

Professional o‘zini o‘zi anglashga erishish uchun ta’lim muassasasida o‘quvchi shaxsini kasbiy o‘zini o‘zi belgilash sub’ekti sifatida bosqichma bosqich shakllantirishga qaratilgan to‘liq, tizimli kasbiy yo‘nalish shakllanishi kerak.

Kasbga yo‘naltirish – bu shaxsning kasbiy o‘zini – o‘zi belgilashiga, o‘z moyilligidan qanday foydalanishni biladigan bo‘lajak mutaxassisni shakllantirishga yordam beradigan ilmiy asoslangan chora – tadbirdilar tizimini (ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik-pedagogik, tibbiy-fiziologik) tashkil etish va kasbiy faoliyatda o‘zi va jamiyat uchun eng katta foyda keltiradigan qobiliyat, mehnat bozorida erkin harakat qilish va raqobatbardosh bo‘lishdir.

Kasbga yo‘naltirish mustaqil bilim sohasi bo‘lib, u pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, iqtisod, tibbiyot va huquq fanlari negizida shakllanadi.

Kasb-hunarga yo‘naltirishni boshqarishga tizimli yondashuvni amalga oshirish uning fanlararo jihatlarini hisobga olish va ushbu jarayon ishtirokchilarining umumiylarini, ularning vazifalari, funksiyalari, mazmuni va samarali faoliyatini shakllantirish uchun faoliyat turlarini aniqlash imkonini beradi.

Tizimli yondashuv quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

jarayonning tuzilishini aniqlash (kasbga yo‘naltirish sub’ektlari);

maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish uchun zarur va yetarli bo‘lgan tarkibiy elementlarni tahlil qilish; elementlarning ichki tuzilishini o‘rganish, magistral aloqalarni aniqlash.

Shunday qilib, kasbga yo‘naltirishni boshqarish subyekt-obyekt munosabatlariga asoslangan jarayon sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin, bunda obyekt shaxsning kasbiy o‘zini-o‘zi belgilashi, subyekt esa shaxs va unga ta’sir qiluvchi ijtimoiy institutlar: oila, psixologik va ijtimoiy institutlar, pedagogika fani, psixologik markazlar va xizmatlar, tibbiyot muassasalari, umumiylar va kasb-hunar ta’limi muassasalari, ommaviy axborot vositalari, tashkilot va korxonalar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridir.

Ushbu subyektlarning har biri o‘ziga xos maqsadlarga ega bo‘lishi va ularning diapazoni juda muhim bo‘lishi mumkin – eng uzoqdan (kasbiy o‘zini-o‘zi anglash) eng yaqingacha (tanlov kurslarida maktabga borish).

Biroq, tizimli yondashuv kontekstida keng ma’noda kasbiy yo‘l-yo‘riqning pirovard maqsadi o‘z moyilligi va qobiliyatini, o‘z kasbiy faoliyatida o‘zi uchun eng kata foyda keltiradigan holda ishlata oladigan mutaxassis shaxsini shakllantirishdir.

Jamiyat, mehnat bozorida erkin harakat qilish va raqobatbardosh bo‘lish. Umumta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirish o‘quv jarayonida, sinfdan, maktabdan tashqari tadbirdarda, maktabning boshqa ijtimoiy tuzilmalar: oila, kasb-hunar maktablari bilan o‘zaro hamkorligi sharoitida amalga oshiriladi, jumladan, mono markazlar, bandlik xizmatlari, korxonalar, tashkilotlar va boshqalar.

Maktabda kasbga yo‘naltirishning maqsadi – mustaqil va ongli rejalashtirish, tuzatish va shaxsiy

kasbiy rejalarini amalga oshirish uchun ichki tayyorgarlikni bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

Maktabda kasbga yo'naltirishning o'ziga xos xususiyati shundaki, kasbiy yo'nalish o'quvchilarga ta'lim jarayonining sub'ektlari tomonidan ta'sir ko'rsatish o'qish davomida tizimli ravishda amalga oshiriladi.

Aynan shu xususiyat mактаб o'quvchilarini kasbga yo'naltirish jarayonini boshqarish jarayonida uzlusizlik, izchillik, tabaqlashtirilgan yondashuvni nazarda tutadi.

Kasbiy yo'naltirish ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik va tibbiy-fiziologik vazifalar majmuasini hal qilishga qaratilgan.

Ta'lim muassasalarida kasbiy yo'nalish quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- kasbiy ta'lim – kasbiy qiziqish va moyillikni rivojlantirish;
- professional maslahat;
- qaror qabul qilishda psixologik va hissiy yordam.

Kasbiy ta'lim shartli ravishda ikki shaklga bo'linadi: kasbiy ma'lumot va kasbiy targ'ibot. Ushbu komponentning ahamiyati shundaki, u kasb tanlash erkinligi doirasini kengaytiradi. Yosh inson atrofidagi dunyoni qanchalik yaxshi bilsa, uning tanlovi shunchalik maqbul va asosli bo'ladi.

Shu bilan birga, mehnat amaliyoti mактаб o'quvchilarining ma'lum bir qismi uchun aniq kasbiy yo'rionomalarning yo'qligi, ularning mehnat va kasblar dunyosi, ma'lum bir kasb yoki mutaxassislik, shaxsga qo'yadigan talablari haqida xabardor emasligini tasdiqlaydi.

Binobarin, kasb-hunar ta'limi maktabning kasbga yo'naltirish ishlarning umumiyligi tizimida fan asoslarini o'qitish jarayonida ham, darsdan tashqari vaqtarda ham o'zining munosib o'rin egallashi muhim ahamiyatga ega.

Kasb-hunar ta'limi vazifalarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish, o'quvchilarini mehnat faoliyatining turli turlari va texnologiyalari bilan tanishtirish har bir o'quvchining qiziqishlari, qobiliyatlarini moyilliklarini rivojlantirish uchun differensial yondashuv bilan uyg'unlashtirilishi kerak.

Kasb-hunar ta'limi umumiyligi ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda va uning mazmuni uzlusizligini ta'minlagan holda amalga oshirilishi kerak.

Kasb-hunar ta'limi bo'yicha olib borilayotgan ishlarni ijobjiy natija berishi uchun uni mohirona va katta pedagogik mahorat bilan olib borish kerak.

Mamlakatda va jamiyatda etishmayotgan kasblarga e'tibor qaratgan holda, o'quvchilarga bosim o'tkazmaslik kerak, chunki bu faqat ushbu kasbga qiziqishning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Kasb-hunar ta'limi ishini yo'naltirishi kerak bo'lgan asosiy tamoyil – uning hayot bilan bog'liqligi. Shundan kelib chiqib, ushbu sohadagi ishlarning asosiy yo'nalishlarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

- kasb-hunar ta'limi o'quvchilarida mamlakat xalq xo'jaligi, uning tarmoqlari, korxonalarini, kasb-hunarlari haqida yaxlit, ko'p qirrali tushunchalarni shakllantirishni nazarda tutadi;

- kasbiy ta'lim bo'yicha ishlarni amalga oshirish jarayonida xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish yo'nalishini, o'rnatilgan mehnat an'analarini, umumiyligi ta'lim va kasb-hunar ta'limi muassasalarining mavjudligini hisobga olish zarur;

- mактаб o'quvchilarining kasbiy ta'limi aniq kasblarga bo'lgan haqiqiy ehtiyojga asoslangan bo'lishi kerak;

- kasblar olami bilan tanishish o'quvchilarining kasbiy qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini hamda yoshlarning ushbu xususiyatlarining rivojlanish dinamikasi bilan chambarchast bog'liq bo'lishi kerak;

- kasbiy ta'lim bo'yicha ishlarning mazmuni o'quvchilarining yoshi, jinsi bo'yicha tarkibini hisobga olishi kerak.

Kasbiy ma'lumotlar yoshlarga kasbiy o'zini-o'zi belgilash asoslari, shaxsiy xususiyatlar va inson uchun kasbiy faoliyat talablari o'rtasidagi bog'liqlik haqida bilim berish uchun mo'ljallangan.

Kasbiy ma'lumot berish jarayonida mактаб o'quvchilariga kasblar va mutaxassisliklar dunyosi, kasbiy mehnatning mazmuni, moddiy va ijtimoiy muhit sharoitlari, ish haqi, mehnat va dam olish rejimi, ushbu kasbni rivojlantirish istiqbollari, shakllari haqida ma'lumotlar taklif etiladi va o'qitish shartlari, malaka va ish o'rinalarini oshirish imkoniyatlar tushuntiriladi.

Ushbu kasbning inson salomatligi holatiga, uning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga, shaxsiy fazilatlariga, umumiyligi ta'lim va maxsus tayyorgarlik darajasiga qo'yadigan asosiy talablarini ajratib ko'rsatishga alohida e'tibor beriladi.

Kasbiy targ'ibot va professional tashviqot, birinchi navbatda, kadrlar etishmasligi yoki har qanday

kasbga qabul qilishning ko‘payishi kutilayotgan kasblarni reklama qilishga qaratilgan. Targ‘ibot va tashviqot to‘g‘ri tashkil etilganda, kasbiy targ‘ibot kasbiy tanlov muammosiga ijobjiy munosabatni shakllantirishga hissa qo‘shishi va xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun: ishonchli (ishonchli manbadan olingan), ob’ektiv (kasbiy faoliyatning ayrim jihatlarini reklama qilish) bo‘lishi kerak. Qabul qilib bo‘lmaydigan, keng qamrovli (kasbiy faoliyatning barcha jabhalariga e’tibor qaratish lozim, kasbiy o‘sish istiqbollari va ijodiy qobiliyatlarni qo‘llash imkoniyatlari alohida e’tibor qaratish lozim).

Maktab o‘quvchilarining turli xil texnik, sport, badiiy, adabiy, ekologiya va boshqa to‘garaklar, tanlovlar, shuningdek, darsdan keyin o‘tkaziladigan turli kasb-hunarga yo‘naltirish tadbirlarida ishtiroy etishi ularda ijobjiy motivatsiyani rivojlanirishga, kasbiy o‘zini-o‘zi shakllantirishga yordam beradi.

Kasbiy maslahatning axborot funksiyasi o‘quvchiga tavsiya etilgan faoliyat turining aniq mutaxassisliklari va kasblari to‘g‘risida, shuningdek tavsiya etilgan kasb-hunar makteblari to‘g‘risida ma’lumotnomma xarakteridagi ma’lumotlarni taqdim etishni o‘z ichiga oladi. Bu jihatdan professional maslahat professional ma’lumotlar bilan chambarchas bog‘liq.

Diagnostika funksiyasi o‘quvchilarining asosiy fiziologik va psixologik xususiyatlarining rivojlanish darajasini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Shu munosabat bilan ikkita asosiy shaklni ajratish mumkin: tibbiy va psixologik.

Tibbiy funksiya – tananing barcha tizimlarini (yurak-qon tomir, nafas olish, asab, tayanch-harakat va boshqalar) tekshirish, shuningdek, analizatorlarning ishlash darajasi. O‘smyrning xohish-istiklari, qiziqishlari, qobiliyatiga mos keladigan mutaxassisliklarni tanlash bo‘yicha malakali shifokor maslahati, ayniqsa, sog‘lig‘ida muammolar bo‘lgan odamlar uchun muhim bo‘lgan, yakuniy kasbiy tanlovdan oldin bo‘lishi kerak.

Psixologik funksiya quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

1. Kasbiy faoliyat sub’ektining faoliyat prinsipi.

Ushbu qoida subyektning quyidagi talablardan kamida ikkitasini bajarganida amalga oshiriladigan faoliyatini ko‘rsatadi:

birinchidan, maslahatchi professional psixologdan yordam va ma’lumot olishga ehtiyoj sezishi kerak; ikkinchidan, u kasbiy rivojlanish muammollarini bartaraf etish yo‘llarini mustaqil ravishda hal qilishi kerak, maslahatchi esa unga faqat o‘z qiziqishlari va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi va kasbiy rivojlanish ssenariysini ishlab chiqadi.

2. Malaka oshirish predmetiga kompleks yondashuv tamoyili. Ushbu prinsipga ko‘ra, turli xil murakkablikdagi psixik xususiyatlar va ularning o‘zaro bog‘liqligi tekshirilishi kerak.

Psixodiagnostik tekshiruv uch darajada amalga oshiriladi:

– shaxsiy-motivatsion - motivlar, moyillik va qiziqishlarni, shuningdek, ayrim shaxsiy xususiyatlarni (ekstroversiya - introversiya, hissiy xususiyatlar, muloqot qobiliyatları) tadqiq qilish darajasi;

– kognitiv qobiliyatlar darajasi, ya’ni, e’tibor, xotira, fikrlash, tasavvur va boshqalarning turli xususiyatlari va turlarining jiddiyligini o‘rganish;

– neyro va psixodinamik xususiyatlar darajasi, ya’ni, asab tizimining xususiyatlarini va temperament xususiyatlarini o‘rganish.

3. Maslahat berishda ixtiyoriy ishtiroy etish tamoyili. Shaxsning roziligidan manfaatlar va kasbiy niyatlarni aniqlash uchun test va so‘roqqa har qanday majburlash qabul qilinishi mumkin emas. Bunday tekshiruv, ayniqsa, agar u ko‘p odamlar bilan o‘tkazilsa, ataylab noto‘g‘ri natijalarga olib kelishi mumkin, chunki majburiy tekshiruv sharoitida bunday tashxisning ma’lumotlari ixtiyoriy tekshiruv paytida olingan ma’lumotlardan sezilarli darajada farq qiladi.

4. Individual yondashuv tamoyili. Har bir insonga individual yondashish va tashxis qo‘yish va maslahat berish jarayonida uning qiziqishlari va moyilligidan kelib chiqib yondashish kerak.

Shaxsiy javobgarlik prinsipi. Unga ko‘ra, psixolog psixologik tashxisning to‘g‘riligi, qo‘llaniladigan diagnostika usullarining etarliligi va tuzatish choralarini uchun shaxsan javobgardir.

Kasbiy konsultatsiyaning bashorat qilish funksiyasi talabalarning u yoki bu faoliyat turi bo‘yicha o‘zlashtirish darajasini bashorat qilishga qaratilgan – kasbiy tanlov, kasbiy muvofiqlikni aniqlash.

Kasbiy tanlov deganda o‘quvchilar uchun ta’lim va kasbiy faoliyatning maqbul turlarini tanlash uchun qobiliyatlarni, shaxsiy xususiyatlarni, olingan ko‘nikmalarni tekshirish tushuniladi.

Umumta’lim maktabiga kelsak, o‘quvchilarga oldindan tayyorgarlik kurslari yoki o‘quv profilini tanlashda psixologik maslahat yordami ko‘rsatish mohiyatan kasbiy tanlash tartibi hisoblanadi.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri – o'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatda faol ishtirok etish va faoliyatga tayyorlashdir. Kasb-hunarga yo'naltirish - o'quvchilarning kasb-hunar va mehnat bilan bog'liq rejalarini tuzish, kasb-hunar va mehnat faoliyati sohasini tanlash jarayoniga rahbarlik qilish demak. Bundan kelib chiqadiki, kasb-hunarga yo'naltirish maktab faoliyatining ajralmas qismidir. Bu nafaqat matabning, balki barcha o'quvchi yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ma'sul ijtimoiy insitutlar, shu jumladan, oila, mahalla, davlat tashkilotlari, yoshlar ittifoqi va boshqalarning asosiy vazifasidir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

Sh.M.Mirziyoevning 2023 yil 24 avgustda Samarqand viloyatiga tashrifi davomida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqidan. <https://president.uz/uz/lists/view/6610>

Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2023 yil 20 yanvarda "Maktablarda ikkita xorijiy tilga o'qitish hamda bitta kasbga o'rgatish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutqidan. <https://president.uz/uz/lists/view/5830>

"O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida". Vazirlar Mahkamasi qarori. 12.07.2019yil, 577-son.

"O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida". Prezident Farmoni. 06.11.2020 yil, PF-6108.

"Ishchi kasblar bo'yicha kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". Prezident Qarori. 08.07.2021 yil, PQ-5140.